

2019 yilning yanvar-may oylarida Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

Raq'amlar:

➤ Sanoat ishlab chiqarish hajmi 19,5 trln.so'm.

➤ Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 23,1 %.


➤ Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 103,9 %;

➤ Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,3 %.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-may oylarida Toshkent viloyati korxonalari tomonidan 19,5 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbati sanoat ishlab chiqarish indeksi 109,6 % ni tashkil etdi.

Sanoatning, tog'-kon va ochiq konlarni ishlab chiqarish -3,2 % ga kamayishi, qayta ishlash 17,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 5,8 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohalarida 17,1 % ga o'sishi kuzatildi.

Yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 686,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,5 % ni tashkil etdi.



2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




Sanoat mahsulotlarini tarkibi	<i>mlrd. So'm</i>	2018 yil yanvar-mayga nisbatan, %
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,	19493,0	109,6
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash	686,5	95,2
shu jumladan:		
Ko'mir va lignit qazib olish	198,4	68,2
Metal rudalarini qazib olish	443,3	100,8
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlashda xizmatlar	44,8	99,9

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16737,2 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,9 % ini tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarini tarkibi		<i>mlrd. So'm</i>	2018 yil yanvar-mayga nisbatan,%
Qayta ishlash sanoati		16737,2	116,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar ishlab chiqarish		1660,9	105,7
To'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish		1699,7	109,8
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish		255,9	104,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish		29,5	144,6

Sanoat mahsulotlarini tarkibi		<i>mlrd. So'm</i>	2018 yil yanvar-mayga nisbatan, %
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish		19,3	59,3
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish		1384,5	125,4
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish		86,3	75,9
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish		1051,1	117,4
Metallurgiya sanoati		9048,9	121,5
Avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hamda mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish		1456,5	130,1

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2001,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,3 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarini tarkibi		<i>mlrd. So'm</i>	2018 yil yanvar-mayga nisbatan, %
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash		2001,5	96,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 67,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarini tarkibi		<i>mlrd. So'm</i>	2018 yil yanvar-mayga nisbatan, %
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish		67,8	114,0

Ishlab chiqarilgan xalq iste'moli mollari

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llabquvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3366,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 3,9 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 17,3 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati




2018-yilning yanvar-may oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 51,0 % dan 2019-yilning yanvar-may oylarida 51,7 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 17,7 % ni (2018-yil yanvar-may oylarida 20,9 %) tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5107,2 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

2019-yil yanvar-may

 Boshqa korxonalar



 Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 26,2 % ni tashkil etdi.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2019 yil yanvar-may, mlrd. so'm	2018 yil yanvar-mayga nisbatan, %
Toshkent viloyati	19493,0	109,6
Tuman		
Oqqo'rg'on	256,3	116,7
Ohangaron	78,3	108,2
Bekobod	108,6	107,5
Bo'stonliq	700,9	86,0
Bo'ka	87,2	98,1
Quyichirchiq	86,4	105,5
Zangiota	1203,0	111,7
Yuqorichirchiq	494,3	133,9
Qibray	972,3	86,7
Parkent	157,4	110,6
Pskent	99,8	102,2
O'rtachirchiq	135,5	103,9
Chinoz	180,4	105,7
Yangiyo'l	375,4	95,0
Toshkent	794,0	101,4
Shaxarlar		
Nurafshon	571,0	77,3
Olmaliq	7125,4	112,8
Angren	1096,8	87,0
Bekobod	2493,1	95,5
Ohangaron	428,8	102,6
Chirchiq	1726,7	108,4
Yangiyo'l	321,4	123,3

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)**

Sanoat mahsulotlari nomi	O'lchov birligi	2019 yil yanvar-may	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
---------------------------------	------------------------	----------------------------	---

Qayta ishlash sanoati


Tarkibida ikkita ta'minlovchi element– azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	<i>ming tonna</i>	110,6	113,8
Aroq	<i>mingl. 100% spirt</i>	6528,3	75,1
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	<i>ming l. 100% spirt</i>	18,4	110,1
Uzum vinosi	<i>ming l.</i>	410,9	68,2
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	<i>ming l.</i>	38777,5	95,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>ming tn.</i>	31,9	66,0
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni(buxanka), og'irligi 600 g	<i>tn.</i>	404,7	38,6
Tozalangan paxta, soya yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	<i>tn</i>	3735,1	2,2 barobar

Sanoat mahsulotlari nomi	O'lchov birligi	2019 yil yanvar-may	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	19,5	69,3
Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	32,1	70,3
Paxta tiviti (lint)	<i>tn.</i>	1715	72,9

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi	<i>mln.kVt/s</i>	92,8	95,0
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	1369,5	95,9


Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 36,6 % ulushini), Bekobod (12,8 %), Chirchiq shahar (8,9 %) Zangiota tumani (6,2 %), Angren shahar, (5.6 %) Qibray tumani (5,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar va maxalliy ahamiyatga ega korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da


Hududlar kesimida Davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmaliq shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 98.3 %), Bekobod (97,5 %), Nurafshon (94,9 %) va Angren (77,8%)



Shu bilan birga, eng kichkina ulush Yangiyo'l (2,2 %), Toshkent (2,5 %), Yuqorichichiq (3,5 %) va Chinoz (18,0 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning viloyat darajasi (6715,2 ming so'm), Olmaliq shahrida (55107,3 ming so'm), Bekobod shahrida (26410,1 ming so'm), Ohangaron shahrida (11589,6 ming so'm) va Nurafshon (11822,0 ming so'm) shaharlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Aholi jon boshiga xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi viloyat darajasi 1159,7 ming so'm bo'lgani holda Ohangaron shahrida 1991,4 ming so'mni, Yangiyo'l shahrida 1416,6 ming so'mni, Chirchiq shahrida 1685,2 ming so'mni, Zangiota tumanida 3746,5 ming so'mni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yuqorichirchiq tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 90,9 %), Parkent (86,3 %), Oqqo'rg'on (85,2 %) va O'rtachirchiq tumani (78,5 %). Shu bilan birga, eng kichkina ulush Olmaliq shahri (1,6 %), Bekobod shahri (2,4 %), Nurafshon shahri (5,1 %), Ohongaron shahri (14,5 %) shaharlarida kuzatildi.


Toshkent viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-may oylarida umumiy sanoatkorxonalari soni, *birlikda*



Toshkent viloyati bo'yicha jami ro'xatan o'tgan sanoat korxonalar soni 7685 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (24,1 %)ga oshgan, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar soni 6591 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (19,8 %)ga oshgan, faoliyatini vaqtincha to'xtatgan sanoat korxonalar soni 1094 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (58,3 %)ga oshgan, yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni 1020 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (83,8 %)ga oshgan, faoliyati to'xtatilgan sanoat korxonalar soni 75 o'tgan yilning shu davriga nisbatan (13,8 %)ga tushgan.

Toshkent viloyati hududlar bo'yicha 2019 yil yanvar-may oylarida umumiy sanoat korxonalari soni

Hududlar bo'yicha ro'xatdan o'tgan eng ko'p sanoat korxonalari Zangiota (1133 ta bundan 1000 ta faoliyat korsatadi), Qibray (722 ta bundan 574 ta faoliyat korsatadi), Toshkent (633 ta bundan 520 ta faoliyat korsatadi) tumanlariga to'g'ri keladi.



Eng kam sanoat korxonalari Oqqo'rg'on (145 ta bundan 121 ta faoliyat korsatadi), Bekobod (154 ta bundan 134 ta faoliyat korsatadi) tumanlariga to'g'ri kela

**Toshkent viloyati statistika
boshqarmasi sanoat statistikasi
bo'limi** Nashr uchun ma'sul:

R.Avliyakulova
(71)230 86 66